

KASB-HUNAR MAKTABLEARI O'QUVCHILARINING UMUMKASBIY  
FANLARDAN MUSTAQIL ISHLARINI PEDAGOGIK  
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH

F.E.Tursunov, Andijon davlat pedagogika instituti fizika  
va texnologik ta'lif v.b dotsenti  
Voxidova Gulchiroy Farxodjon  
qizi, Andijon davlat pedagogika  
instituti texnologik ta'lif 3-bosqich talabasi

**ANNOTATSIYA:**

O'quvchilar mustaqil ishiga mualliflar tomonidan turlicha ta'riflар berilgan. Ta'riflarning qiyosiy tahlili ularning qarashlarida jiddiy farqlar borligini ko'rsatadi, bu xol so'nggi yillarda o'quvchilar mustaqil ishining mohiyati va uni tashkil etish shartlari haqida shakllangan tasavvurni tanqidiy nuqtai nazardan o'rganish imkonini berdi. Mustaqil ta'lifga ta'rif keltirib o'tish kerak. Mustaqil ta'lif olishni tashkil etish uchun nafaqat muayyan kasbga yoki faoliyat sohasiga qiziqish, balki ushbu faoliyat turiga layoqatning mavjud bo'lishi ham talab etiladi. Ushbu maqolada kasb-hunar maktablari o'quvchilarining umumkasbiy fanlardan mustaqil ishlarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: zamonaviy kasb hunar maktabi, mustaqil ta'lif, faol o'qitish, ta'lif kompetensiyalari, mustaqil ish. madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya, axborot texnologiyalari, kitobxonlik , xotin-qizlar bandligi.

**АБСТРАКТНЫЙ:**

Самостоятельная работа студентов определяется авторами по-разному. Сравнительный анализ определений показывает, что имеются существенные различия во взглядах, что позволяет критически рассмотреть сложившееся в последние годы представление о сущности самостоятельной работы студентов и условиях ее организации. Необходимо дать определение самостоятельному обучению. Для организации самостоятельного обучения необходим не только

интерес к определенной профессии или сфере деятельности, но и наличие компетентности в данном виде деятельности. В статье рассматривается организация самостоятельной работы учащихся профессиональных училищ по общепрофессиональным предметам на основе педагогических технологий.

**Ключевые слова:** технологии, образование, современные методы, нетрадиционные методы, демонстрация, интерактивность, гибкость, социальные сети, практический опыт.

#### ABSTRACT:

Independent work of students has been defined differently by authors. A comparative analysis of the definitions shows that there are significant differences in their views, which makes it possible to critically examine the idea that has been formed in recent years about the essence of independent work of students and the conditions for its organization. It is necessary to define independent education. To

organize independent education, not only interest in a particular profession or field of activity is required, but also the presence of competence in this type of activity. This article discusses the organization of independent work of students of vocational schools in general professional subjects on the basis of pedagogical technologies

**Keywords:** technology, education, modern methods, non-traditional methods, demonstration, interactive, flexibility, social media, practical experience.

KIRISH. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining xar yili yangi yil arafasida mamlakatimiz parlamenti - Oliy Majlisga Murojaatnoma bilan chiqishi mamlakatimiz siyosiy xayotidagi tarixiy voqeа sifatida jamiyatimizdagi ijtimoiy munosabatlarni sifat jixatidan o‘zgartirmoqda. Xalqimiz yangi yil bilan birga kelgusi yil yurtimiz xayotida qanday mahno-mazmunga ega bo‘lishi Prezidentimiz Murojaatnomasida bu borada qanday maqsad va vazifalar belgilab berilishini ham kutmoqda. Ana shunday orzu-umidlar ifodasi bo‘lgan Murojaatnoma Prezidentimiz tomonidan 2018-yil 28-dekabrda ehlon qilindi. Mamlakatimizning 2019-yildagi taraqqiyotining bosh xujjati bo‘lgan ushbu Murojaatnoma o‘zining mahno-mazmuni, tarkibiy tuzilishiga ko‘ra g‘oyat

serqirra va keng ko‘lamlidir. Unda, avvalo, o‘tgan 2018 yil - Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yilida amalga oshirilgan ishlar atroflicha taxlil qilinib, muhim xayotiy xulosalar ilgari surildi. o‘tgan yil tajribalari va kelgusida xalqimiz, mamlakatimiz oldida turgan vazifalar asosida 2019-yil yurtimizda “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili” deb e’lon qilindi. Murojaatnomada ushbu yildagi eng muhim maqsad va vazifalar aniq ko‘rsatib berildi.

#### .TADQIQOT MATERIALLARIVA METODOLOGIYASI. Ayniqsa

yoshlar bilan ishslash masalasi, ularning tadbirkorlikka keng jalb etish, bandligini tahminlash maqsadida “Yoshlar – kelajagimiz” jamg‘ armasi faoliyatini yanada kengaytirish zarurligi. Yoshlarning turli radikal va zararli g‘oyalar ta’siriga tushib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik. Bu boradagi ishlarni yangicha yondashuvlar bilan davom ettirish. Davlat-xususiy sheriklik asosida yangi madaniyat va istiroxat bog‘larini tashkil etish, ularni zamonaviy yoshlar maskanlariga aylantirish, sport maydonchalari, amfiteatr va kichik saxnalar, kutubxona, “Kitob kafelari”, jamoat joylarida bepul “vay-fay” xududlarini tashkil etish choralar ishlab chiqish masalasi ko‘rilgan edi. Bu borada 2019-yil 20-mart kuni davlat raxbari boshchiligidida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida yoshlarimizga bo‘lgan e’tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, sanhat, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga urg‘u berildi. Turli ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi dunyo manzaralarida yoshlarimizning mahnaviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish xar qachongidan ham dolzarbroq ekanini zamonning o‘zi ko‘rsatib turibdi.

TADQIQOT NATIJALARI. Ma’lumki, davlat raxbari ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi.

Birinchi tashabbus: yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va sanhatning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, istehdodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus: yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan.

Uchinchi tashabbus: axoli va yoshlar o‘rtasida kompiyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To‘rtinchi tashabbus: yoshlar mahnaviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan.

Beshinchi tashabbus: xotin-qizlarni ish bilan tahminlash masalalarini nazarda tutadi .

Prezidentning joriy yilda Sirdaryo hamda Namangan viloyatlariga qilgan amaliy tashrifi davomida mazkur xududlardagi tuman va shaxar kutubxonalariga bir necha yuz ming nusxada badiiy adabiyotlar yetkazib berildi. “Mahrifat karvoni” tashkil etildi. Yoshlar uchun 25 ming dona kitob, 80 turdagи sport jixozlari va musiqa asboblari yetkazib berildi. Mazkur 5 tashabbus keng jamoatchilik tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Endilikda ushbu tajribani yurtimizning barcha xududlarida keng joriy qilish masalalari muxokama qilindi. Kasb-hunar maktablarida o‘qituvchi raxbarligi va nazorati ostida o‘quvchilarda umumta’lim, umumkasbiy va maxsus fanlar bo‘yicha nazariy va amaliy ishlarni mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarни shakllantirish hamda rivojlantirish, ularda erkin fikrlash va ijodkorlikni, axborot kommunikatsiya texnologiyalar bilan mustaqil ishlash qobiliyatlarini yuksaltirish maqsadida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi Markazining 2005-yil 17-avgustidagi 192-sonli buyrug‘iga 6-ilova bilan “Akademik litsey va Kasb-hunar maktablarida O‘quvchining mustaqil ishlarni tashkil etish to‘g‘risida”gi Muvaqqat Nizomi qabul qilindi. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2000-yil 16-oktyabrdagi “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 400-sonli qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan. Davlat ta’lim standartlari va kasb-hunar maktablari bitiruvchilariga

qo‘yiladigan talablardan kelib chiqib, o‘quv rejada belgilangan mustaqil ish uchun ajratilgan yuklamalarni bajarish chora-tadbirlarini ishlab chiqish ta’lim muassasalarining umumta’lim, umumkasbiy va maxsus fan o‘qituvchilari zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarni o‘quv-tarbiya jarayonining chinakam subhektiga aylantirib, uni mustaqil ishlashga o‘rgatadi. Bo‘lajak kichik mutaxassislar kasbiy ko‘nikma va malakalarining shakllanishi va rivojlanishi Kasb-hunar mакtablarida umumkasbiy fanlarning qanday o‘qitilishiga, o‘quvchilarning mustaqil ishlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishga bog‘liq. Demak, Kasb- hunar mакtablarida o‘quvchilarning umumkasbiy fanlardan tashkil etiladigan mustaqil ishlarini tashkil etish usullari va yo‘llarini tadqiq qilish muhim ilmiy- pedagogik muammodir. Bo‘lajak kichik mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, mustaqil fikrlay oladigan faol shaxsni shakllantirish muhim pedagogik muammolaridan xisoblanadi. Biroq bu muammoni qomusiy olimlarimizning pedagogik qarashlari, ta’limotini o‘rganmasdan turib to‘la xal etib bo‘lmaydi.

Muhammad Abu Nasr Forobiy, Maxmud Qoshg‘ ariy, Yusuf Xos Xojib, Xusayn Voiz Koshifiy, Axmad Yugnakiylarning ilmiy qarashlari va ta’lim- tarbiyaga oid asarlarida umumpedagogik va didaktik g‘oyalar, shu bilan birga mustaqil fikrlash, mustaqil ta’lim olish masalalari aks ettirilgan. Xususan, Al Xorazmiy asarlarida umumdidaktik tamoyillar, metodlar va shakllar, mustaqillik, mustaqil yondashish, mustaqillikka undash, ijodiy faollik, ijodiy fikrlash, kuzatilgan xodisalarini tasvirlash hamda uni muntazam bayon etish, tajriba kuzatuv, O‘qitishning savol-javob shakli xaqida qimmatli fikrlari ilgari surilgan. Forobiyning “Ilmlarning kelib chiqishi”, “Aql mahnolari to‘g‘risida” asarlarida ta’lim- tarbiyaning vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan, mustaqil va ijodiy fikrlaydigan, yetuk insonni tarbiyalashdan iborat ekanligi tahkidlanadi.

V.Graf, V.A.Lyadus, V.V.Safin, V.M.Monaxov, V.I.Bespalg‘ko, G.N.Knyazova kabi xorij olimlari ilmiy-tadqiqot ishlarida zamonaviy o‘qitish texnologiyalari, mustaqil ta’lim muammolari xaqida o‘z qarashlarini bildirishgan. O‘zbekistonlik

pedagog olimlar ta’limni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, o‘quvchilarni mustaqil o‘qishga o‘rgatish bo‘yicha bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishgan. Ayniqsa, N.N.Azizzodjaeva, N.A.Sayidaxmedov, J.G.YO‘ldoshev, J.O.Tolipova, X.F.Rashidov, O.B.Berdieva, A.V.Sadikova, D.F.Jalolova, B.X.Xodjaev, S.Qulmamatov, O.A.Quysinov kabi tadqiqotchilar o‘z ilmiy ishlarida pedagogik texnologiyalarni qo‘llash muammolari, o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishning turli jixatlariga to‘xtalishgan. Ularning tadqiqotlarida umumta’lim mакtab o‘quvchilari va shu bilan birga oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashga e’tibor qaratilgan. Yuqoridaq olimlar o‘z ishlarida Kasb-hunar mакtablarida umumkasbiy fanlar bo‘yicha mustaqil ishni tashkil etish, ularga qo‘yilgan maxsus talablar ustida to‘xtalmagan hamda mustaqil ishni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishga ahamiyat berishmagan. Bu esa, bugungi kunda kasb-hunar ta’limida o‘quvchilarning mustaqil ishlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan xolda tashkil etish yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligini ko‘rsatadi.

O‘qituvchi qo‘yilgan maqsadni amalga oshirish uchun o‘quvchilarning mustaqil ishini rejalashtiradi. Ta’kidlash lozimki, bu jarayonni o‘quvchi bilan bиргаликда, uning qiziqishi va extiyojini xisobga olgan xolda amalga oshirgan mahqul. Xar qanday o‘quv jarayonining dastlabki bosqichi bo‘lmish rejalashtirish o‘quvchilar mustaqil ishini rivojlanish yo‘lini belgilab beradi. Chunki mazkur ta’lim faoliyati turi aniq reja asosidagina yanada samarali tashkil etilib, unda qo‘yilgan maqsadlar “asosi” dan bashorat qilinayotgan natijagacha bo‘lgan faoliyat yo‘nalishi ko‘rsatiladi (individual bilim olish yo‘nalishi). O‘quvchilar mustaqil ishining rejalashtirilishi uni ilmiy asoslangan mehyorlar asosida tashkil etishni taqozo etadi. O‘quvchilar mustaqil ishini samarali tashkil etish uchun uni puxta rejalashtirish lozim. Shu bilan birga, o‘qituvchi mustaqil ish faoliyatining turli shakllarini rejalashtirar ekan, o‘quvchilarning ularni mustaqil xal etishini nazarda tutgan xolda, xar xil darajadagi aniq (strategik, taktik, amaliy) vazifalarni belgilaydi. Mustaqil ishning mazmuni va xajmini oydinlashtirish

asosida mustaqil ish reja-jadvalini (o‘quv fanning texnologik xaritasini) tuzadi. Chunki, pedagogik tajribamizning

diagnostik bosqichidagi mahlumotlar o‘quvchilar mustaqil ishini rejalashtirishning muhimligi va zarurligini tasdiqlaydi.

Xar bir mustaqil ishning samaradorligi o‘quv materiali mazmuniga bog‘liq. O‘quvchilarning mustaqil ishi uchun mavzu tanlashi - juda muhim va ko‘p mehnat talab qiluvchi jarayon. Shuning uchun mustaqil ish uchun ajratilgan o‘quv elementlarining mavzusi shunday berilishi kerakki, ularning ustida ishlash chog‘ ida o‘quvchi butun o‘quv materialning mantiqiy tuzilishiga ko‘ra bilsin va uni ongli ravishda o‘zlashtirsin. Mavzu o‘quvchi shaxsining rivojlanishi va o‘z ustida mustaqil ishlashiga undovchi birlamchi asos bo‘lib, bu ishning samaradorligi, o‘quvchining uni bajarishdan manfaatdorligi o‘qituvchining mustaqil ish uchun mavzuni qanchalik to‘g‘ri tanlay bilishiga bog‘liq. Aynan ana shu sababli o‘qituvchilar mustaqil ish materialini tanlashga muhim ahamiyat berishlari zarur. Mustaqil ish uchun tanlab olingan o‘quv materiali mazmuni metodik jixatdan tahminlanishi shart. O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan mustaqil ishni tashkil etishning turli jixatlarini ko‘rib chiqishda o‘qituvchi bilan o‘quvchining o‘zaro munosabatlari masalalariga to‘xtalmaslikning iloji yo‘q. O‘quv jarayoni subhektlarining hamjixatligi va mustaqil ishga mashuliyat bilan yondashuv ta’lim samaradorligini oshiradi. Yuqorida aytilganlarga asoslanib, xulosa chiqarish mumkinki, o‘quvchilarning mustaqil ishini tashkil etishda o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyiliga tayanish zamonaviy ta’lim tizimida eng maqbul yo‘l xisoblanadi. O‘quv jarayoni ana shunday tarzda tashkil etilganda o‘quvchining mustaqil ishini samarali amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratiladi va bu jarayonda o‘qituvchi ham bevosita ishtiroy etadi.

Mustaqil ishni tashkil etishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv uni shaxsiy ahamiyatga molik darajaga ko‘taradiki, bu xol, o‘z navbatida, mustaqil ishning xar qanday turida faollik va ijodiy asosning kuchayishiga imkon yaratadi. Natijada mustaqil ish tizimi tashkiliy jixatdan murakkab yaxlitlik, yahni “qismlarining o‘zaro tahsiri ularning o‘zidan ko‘ra muhimroq” bo‘lgan yaxlitlik sifatida namoyon bo‘ladi.

o‘quvchilarning mustaqil ishini tashkil etishda o‘qituvchining funktsiyalari quyidagilardan iborat bo‘ladi: O‘quvchilar shaxsiga yo‘naltirilgan mustaqil ishni rejalashtirishda ko‘maklashish; O‘quv mazmunini tanlash (shaxsni rivojlantiruvchi vaziyatlarni aniqlash, shaxsga ochilishiga yo‘naltirilgan topshiriqlarni tuzish); O‘quvchilar mustaqil ishini tashkil etish, yahni o‘qitish jarayoni komponentlarining o‘zaro bog‘liqligini tahminlashdan; O‘quvchilar mustaqil ishini boshqarish va ularning o‘quv faoliyatini monitoringini olib borish (bu ish xushmuomalalik bilan, maslaxat tizimi orqali amalga oshirilib, u o‘quv mehnatini qathiy cheklab qo‘yishga emas, balki xar xil o‘quv faoliyatini o‘zlashtirishda, o‘z-o‘zini namoyon etishda ko‘maklashishga yo‘naltiriladi).

Yuqorida qayd etilganlarni umumlashtirib xulosa chiqarish mumkinki, mustaqil ish tizimida o‘qituvchilar bilan o‘quvchilar hamkorligining samarali bo‘lishini tahminlash uchun quyidagilar muhim sanaladi:

-O‘quv faoliyatida mazkur faoliyat subhektlari hamkorligining ijobiy tajribasiga tayanish va bunday hamkorlikni rag‘batlantirishning turli usullari (masalan, o‘z vaqtida va ijodiy yondashib bajarilgan ishlar uchun rag‘batlantiruvchi ballar berish tizimini joriy etish)dan foydalanish;

-O‘quvchilar mustaqil ishini faqat nazorat (imtixon) natijalariga asoslanib emas, balki o‘qish mobaynida qanchalik muntazam, ijodiy ishlaganligiga ham asoslanib baxolash.

Shu bilan birga, o‘quvchining nafaqat qancha miqdordagi mahlumotni eslab qolganligini, balki uning “zakovati”, muloxaza yuritish qobiliyati, tanqidiy fikrlashi, to‘g‘ri qaror qabul qilishi, bilimni amalda qo‘llashi, o‘ziga mahlum faoliyat usullaridan o‘zi uchun yangi bo‘lgan vaziyatlarda foydalanib, yangi faoliyat usullarini kashf etishining qanchalik rivojlanganligini aniqlash;

-murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan vazifalarni va baxolash tizimlarini ishlab chiqish hamda o‘quvchilarga vazifalarni o‘zlarining extiyoj va imkoniyatlariga mutanosib ravishda tanlash imkonini berish;

-mustaqil ishslash chog‘ida o‘quvchilarning turli shakldagi hamkorliklarini tashkil etish, chunki uch-to‘rtta kishi ishtirokida amalga oshirilgan xar qanday mashg‘ulot, shuningdek sinov va yakuniy nazorat (imtixon)larga tayyorlanish samarali bo‘ladi. Chunki, bunda o‘quvchilar nafaqat bir-birini nazorat qiladi, balki butun gurux ahzolarining o‘qishga bo‘lgan rag‘bati oshadi.

Har bir o‘quvchining bilimi sifatini taxlil qilishga individual yondashish zarurligi talabi boshqa o‘quvchilardan tayyor javobning o‘zlashtirilishiga, shuningdek mustaqil ish vazifalarini nazoratdan chetda jamoa bo‘lib bajarilishiga yo‘l qo‘ymaslik imkonini beradi. Bunga vazifalarning xilma-xilligi hamda shaxsga yo‘naltirilganlik tamoyili orqali erishiladiki, mazkur vazifalarning murakkablik darajalari ularning saviyasiga qarab muvofiqlashtiriladi. Kasb-hunar maktablarida o‘quvchilar mustaqil ishi tizimini aniq tasavvur etish uchun biz mazkur o‘quv faoliyat turini tashkil etish bo‘yicha o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan modelini ishlab chiqdik , unda bu tizimning asosiy tarkibiy qismlari ko‘rsatib berilgan. Kasb- hunar maktablarida o‘quvchilarning shaxsiga yo‘naltirilgan mustaqil ishning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

I. Asoslovchi qism: O‘quvchilarda kasb-hunar kollejida faol, oqilona tashkil etilgan mustaqil ishga qiziqish uyg‘otish. Maqsad: Kasb-hunar maktablarida faol mustaqil bilim olish uchun asos yaratish; o‘quv jarayonida o‘quvchilarning turli o‘quv faoliyatlarini, o‘z aqliy mehnatlarini tashkil etish maxoratlarini egallashlarini rag‘batlantirish; xar bir shaxsning rivojlanishi uchun sharoit yaratish.

Erishish vositalari: O‘quvchilarga mustaqil ishni samarali va unumli amalga oshirishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berish. Erishilgan natijalar: umumiy o‘rta ta’lim tizimidan kasb-hunar ta’limiga asta-sekin o‘tish bo‘yicha qiziqishlarini tahminlash; o‘quvchilarning o‘qish jarayoniga qiziqishini rag‘batlantirish; o‘quvchilarning mustaqil ishini tashkil etishda shaxsga yo‘naltirilgan tamoyilga amal qilish.

II. Dasturiy-maqsadli qism: O‘quv rejasidagi fanlar bo‘yicha bajariladigan O‘quvchilar shaxsiga yo‘naltirilgan mustaqil ish maqsadlarini belgilash va mazkur ishni tashkil etish.

MUHOKAMA. O‘quvchilar mustaqil ishining muloqot tarzida tashkil qilinishi uning muammolashtirilishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, o‘quv jarayonida o‘zaro hamkorlik o‘qituvchi bilan o‘quvchilar ichki xissiyotlarining oshkoraliqi, ularning bir-birlarining aktual xolatlariga ruxan shayligi, bir-birlariga

baxo bermaslik, o‘zaro ishonch, xissiyot va xolatlarini samimiyl ifoda etishlari orqali ta’milanadi. Aksariyat xollarda, suxbat pedagogik vazifalar va muammoli vaziyatlarni xal etish jarayonida amalga oshiriladi. O‘zaro muomalada muloqot nafaqat bilishga yo‘naltiriladi, balki u chuqur axloqiy jarayondir, chunki bu o‘quvchilarning shaxsiy nuqtai nazarlarini, pedagogik muammolarga munosabatini oydinlashtirish imkonini beradi. Muloqotda o‘quvchilarning boshqa odamlar va o‘zlariga bo‘lgan munosabatlarining moxiyatini anglab yetishlari, o‘z xayot yo‘lini belgilab olishlari, o‘z-o‘zini namoyon etishning yangi jixatlarni oydinlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda shaxsning ichki dunyosiga ehtibor berish va uni shaxslararo munosabatlarni uyg‘unlashtirish orqali taxlil qilish imkoniyatlari ochiladi.

XULOSA. Demak, o‘qitish jarayonining muloqot tarzida tashkil etilishi o‘quvchilarning mustaqil ishini faollashtirishga ko‘maklashadi, ularda bilishga bo‘lgan qiziqishning yuksalishini rag‘batlantiradiki, bunday qiziqish shaxsning bilim orttirishdagi mustaqilligini oshiradi, uning nafaqat kasb-hunar kolleji, balki bo‘lajak kasbiy faoliyatida ham o‘zini mumkin qadar ko‘proq namoyon etishi va ro‘yobga chiqarishi uchun imkoniyat yaratadi. G.N.Serikov kasb-hunar kollejida o‘quv muloqotini amalga oshirishning bir nechta shartlarini ajratib ko‘rsatgan. Biz mazkur yondashuvlar asosida kasb-hunar kollejida mustaqil faoliyat chog‘ida muloqotni amalga oshirish shartlarini zamonaviy nuqtai nazardan belgiladik. O‘quv jarayonining muloqot tarzida tashkil etilishi o‘quvchilarga muntazam ravishda “xaqiqatni izlash” xolatida bo‘lish imkonini beradi, bu xol kasb-hunar kolleji ta’lim- tarbiya jarayoniga shaxs uchun ahamiyatli bo‘lgan tadqiqotchilik xususiyatini bag‘ishlaydi. O‘quvchilar mustaqil ishining tadqiqotchilik xususiyati ikkita yo‘nalishda amalga oshiriladi: mustaqil o‘quv-tadqiqotchilik ishi va mustaqil ilmiy- tadqiqotchilik ishi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dushaboev X.A. Mehnat ta'limi o'qituvchisining kasbiy kompetentligining shakllanish tuzilmasi. Zamonaviy fizika va astronomiya yutuqlari: muammo va yechimlari. - T.:TDPU - 2011. - 205 b.
2. Olimov Q.T., Abduquddusov O., Uzoqova L., Ahmedjonov M., Jalolova D. Kasb ta'limi uslubiyoti. Toshkent., Iqtisod moliya, 2006. - 192 b.
3. Kaldibekova A.S., Xodjaev B.X. O'quvchilarining bilish faolligini oshirish yo'llari. Uslubiy qo'llanma. - Toshkent: TDPU, 2006. – 96 b.

#### Elektron ta'lim resurslari

1. www. tdpu. uz
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. uz